Ishlab chiqarishda asosan yuqoridagi birinchi va ikkinchi guruxdagi asboblari keng qo'llaniladi. Ularga: keskichlar, grebyonkalar, frezalar, metchiklar, plashkalar va rezba kesish kallaklari kiradi.

Metchiklar. Metchiklarni texnologik mashina va jihozlarni ishlab chiqarishda zagatovkalarning teshigida konstruksiyasi va geometrik parametrlari turli hil bo'lgan rezbalarni kesishda qo'llaniladi.

Metchik - qirindi kanavkasi kesuvchi tishlarda oldingi, orqa va boshqa burchaklarni hosil qilib kesuvchi asbobga aylantirilgan vint bo'lib dastgohda yoki vorotokda maxkamlash uchun quyruq qism bilan jihozlangan. Metchikning

kesuvchi qismi ko'pchilik holda tez kesar po'latdan ba'zida qattiq qotishmadan tayyorlanadi.

Metchik rezba kesish, metchik bilan qirindini kesish kuchi va ishqalanishning yuqoriligi xamda hosil bo'lgan qirindini chiqarib tashlash qiyinligi uchun og'ir sharoitda kechadi. Bundan tashqari ko'ndalang kesimi kuchsizlantirilganligi uchun ularning turg'unligi past. Asosan qovushqoqligi yuqori bo'lgan materiallarda kichik diametrli rezba kesishda qirindini taxlanib qolishi natijasida ular tez ishdan chiqadi.

Metchiklarni *afzalliklari* quyidagilar: konstruksiyasining soddaligi, o'z- o'zidan kesayotgan rezbada xarakatlanishini hisobiga rezbani kesish imkoniyati, rezbaning aniqligini yuqoriligi va metchiklarni tayyorlash aniqligining yuqoriligi.

Konstruksiyasi va qo'llanishi bo'yicha metchiklar quyidagi turlarga bo'linadi:


1. Dastaki (chilangarlik) - qo'l kuchli yuritmalik ikki yoki uchta nomerdagi komplektda tayyorlanadi;
2. Mashinali - dastaki yakka yoki ikkita nomerdagi komplektda dastaki yoki dastgoh yuritmasidan;
3. Mashinali yakka - dastgoh yuritmasidan;
4. Gaykali - maxsus dastgohlarda gaykalarga rezba kesish uchun;
5. Plashkali va kalibrlovchi - rezba kesish va rezba kesuvchi plashkalarda rezbani kalibrlash uchun;
6. Maxsus - turli profilni: trapetsiyasimon, dumaloq va boshq. rezbalarni kesish uchun, hamda yig'ma sozlanuvchi, metchik - sidirgichlar, konussimon metchiklar va boshqalar.



3.1- rasm. Metchiklar.

Metchiklarning konstruktiv elementlari va kesuvchi qismining geometrik parametrlari. Metchiklarning turlari ko'pligiga qaramay, ularning asosiy qism, konstruktiv element va kesuvchi qismining geometriyasi bir hildir.

Metchikning kesuvchi va kalibrlovchi qismi, qirindi kanavkasi, perolar va tishlari soni mahkamlash elementi bilan birgalikda quyruq qismlaridan tashkil topgan. Uning geometrik parametrlariga p - kesuvchi konus burchagi; y va a - kesuvchi qirralardagi oldingi va orqa burchaklar; α -vintsimon qirindi kanavkasining og'ish burchagi; 2 -oldingi yuzani charxlash o'q bo'ylama burchak kiradi.



3.2- rasm. Metchikning asosiy elementlari. a-metchik konstruksiyasi: 1- o'zak; 2- kvadrat; 3-quyruq qismi; 4-ariqcha (kanavka); 5-kesuvchi pero; b-geometrik parametrlari: 1-oldingi yuza 2- kesuvchi qirra; 3-yo'nuvchi yuza; 4-orqa yuza; 5-kesuvchi pero; a -orqa burchak; p -kesish burchagi; δ -o'tkirlanish burchagi; 7 - oldingi burchak; b-vintli qirindi ariqchasi (kanavkasi); 1- ariqcha (kanavka); g-ochiq rezba qirqish; d-yopiq rezba qirqish; ω -vintli ariqchani (kanavka) qiyalik burchagi.

Metchikni kesuvchi qismi quyimni kesish, kesiluvchi rezba profilini shakllantirish va kesish zonasidagi qirindini chiqarib tashlash bo'yicha asosiy ishlarni bajaradi.


Tishlarni orasida qo'yimni taqsimlash uchun kesuvchi qism kesik konusli yuzasida tashkil etuvchi o'qiga ϕ burchak ostida og'ma xolda bajariladi. Bunda l_1 kesuvchi qism uzunligidagi tishlar detal rezbasining chuqurligidagi qo'yimni generatorli sxema bo'yicha kesadi, ya'ni har bir kesuvchi tish rezba profilini shakllantirishda ishtirok etadi. Bunday sxemani qo'lanishi tayyorlash texnologiyasi va metchiklarni charxlashni osonlashtiradi va soddalashtiradi.

Rezba kesuvchi plashkalar. *Rezba kesuvchi plashkalar* - bu qirindi chiqarish teshiklari parmalangan, tishlarida oldingi va orqa burchakli kesuvchi pero shakllantirilgan kesuvchi asbobga aylantirilgan gayka bo'lib, ularni bolt, vint, shpilbka va boshqa maxkamlash detallarida tashqi rezbalarni kesish uchun qo'llaniladi.

Plashkalar tashqi yuzasining shakli bo'yicha:dumaloq,kvadrat, olti burchakli, quvur plashkalari turlariga bo'linadi. CHilangarlik ishlari uchun ular ikki qismga ajraluvchi bo'lib vorotoklarda o'rnatilib qisiladi. Dumaloq plashkalarni konstruksiyasi sodda, tayyorlash osonligi uchun ishlab chiqarishda ularni ko'p qo'llaniladi. Ularni kalibrlangan tezkesar po'latlardan tayyorlanadi.

3.8- rasmda dumaloq plashkaning konstruksiyasi, uning asosiy konstruktiv va geometrik parametrlari ko'rsatilgan. Konstruktiv parametrlar: plashkaning tashqi diametri D , qalinligi B , qirindi teshiklarining diametrlari d , ular markazlarning aylanasi d , ochiqlik kengligi c , pero kengligi b , devorning eng kichik qalinligi e .


Plashkaning geometrik parametrlari: olidingi burchak γ , orqa burchak a va kesuvchi konus p .



3.10- rasm. Dumaloq plashkaning konstruktiv elementlari

Plashkaning tashqi yuzasida 3 yoki 4 ta konussimon 90° burchakli chuqurchalar (uglubleniya) bo'lib, ular plashkani vorotokda maxkamlash uchun mo'ljallangan. Plashkani xuddi shu yuzasida 60° burchakka ega bo'lgan trapetsiya ko'rinishli paz bajarilgan ($m=0,4...1,5\text{mm}$), bunda plashkani ikki uch marta charxlanganidan so'ng kesib tashlanadi.

Plashkalar qo'l kuchi bilan ishlaganda vorotokka yoki dastgoh uchun halqaga o'rnatiladi (3.11-*a*, *b* rasm). Plashkalarni qiyshiq o'rnatib qolishini oldini olish maqsadida mahkamlovchi vintlarning o'qi konussimon chuqurchalar o'qiga nisbatan plashkani o'rnatuvchi uyani torets qismiga jips mahkamlash uchun siljirilgan. Plashkani kesilganidan so'ng vorotokdagi vint 1 va mahkamlovchi vintlar 2 yordamida plashka diametrini sozlash mumkin.



3.11-rasm. Plashkalarni mahkamlash uchun qurilma: *a* - vorotok; *b* - halqa

Plashkalar bilan asosan diametri $2...36\text{ mm}$, ba'zida $42...48\text{ mm}$ bo'lgan o'tkir burchakli mahkamlash rezbalari kesiladi. Boshqa kesuvchi asboblari (freza, keskich)

bilan hosil qilingan rezbalarni kalibrlash uchun $d = 56...135$ mm diametrli plashkalar qo'llaniladi.

Plashkalarni tashqi diametri:

$$D = d_{ts} + d_c + 2e$$

d va d diametrlar qirindisi erkin joylashuvi va devorni eng kichik qalinligi e shartlar asosida hisoblanadi. $D = 2...52$ mm plashkalar uchun:

$$e = (0,6...0,9)VD$$

Plashkaning ishchi qismi $2p$ burchakli ikkita o'zaro almashinuvchan kesuvchi konuslardan tashkil topgan.

Kesuvchi qism uzunligi (3.12-rasm):


bu yerda: d - plashkaning kiruvchi qismini diametri; d - rezbaning ichki diametri; faska ($d = 0,2...0,4$ mm); h - rezba profili balandligi.

3.12- rasm. Plashkaning kesuvchi qismi

Qirindi teshiklari sonini kesiluvchi rezbaning tashqi diametrlari d ning diapazonlariga bag'liq holda olishni tavsiya etiladi

d , mm	2...5	6...18	20...30	33...48
z_s	3	4	5	6

Kalibrlovchi qism. Plashkalarning kalibrlovchi qismi rezbani kalibrlash uchun mo'ljallangan. Ular kesish jarayonida kesuvchi asbobni yo'nalishi va o'zi yurishiga ta'sir ko'rsatadi. Kalibrlovchi qismida rezbani jilvirlash imkoni yo'q. SHuning uchun tishlardagi orqa burchaklar nolga teng. Kesilgan rezbaning aniqligi $6h$, $8h$ dan katta emas.




3.12- rasm. Plashkaning kesuvchi qismi.

Plashkaning kalibrlovchi qismida ishqalanish va rezba profilini chetga chiqishini kamaytirish maqsadida uning uzunligi odatda $l_2 = [3...6]p$ olinadi.

Plashkaning geometrik parametrlari. y oldingi burchak tishning kesuvchi qirrasiga o'tkazilgan radius va oldingi burchakka urinma orasidagi radius bilan bilan o'lchanadi (21.23-rasm). Oldingi burchakka urinma qirindi teshigining bir qismi bo'lganligi uchun, oldingi burchak juda katta bo'ladi. Uni oldingi yuzasi bo'ylab zenker bilan (termik ishlov berilguncha qadar) kesib yoki kichik diametrli jilvir tosh bilan jilvirlab (termik ishlov berilguniga so'ng) kamaytirish mumkin. Bunda oldingi yuzaning to'g'ri chiziqli uchastkasining rezba profilining balandligiga nisbatan katta bajariladi, ya'ni x/h . CHarxlash burchagini $\gamma = 20...25$, standart plashkalarda esa $\gamma = 15...20^\circ$ olinadi.

Qovushqoqligi yuqori bo'lgan materiallarga ishlov berishda qirindi teshigini oshirish va qirindisini surish tomonga yo'naltirish maqsadida termik ishlov berilganidan so'ng, abraziv kesuvchi asbob bilan kesuvchi tishlarning oldingi yuzasi plashkaning o'qiga nisbatan ma'lum burchak ustida ($\angle I = 15^\circ$) charxlanaia (3.13- rasm).






3.13-rasm. Kesuvchi qismni olidingi yuzasi bo'ylab charxlash bilan plashka konstruktsiyasini yaxshilash usuli.

Yo'riqli texnologik harita

Kasb kodi va nomi: 3.51.01.02.Elekt stansiyalar uskunalari ta'mirlash chilangari.

O'quv amaliyoti nomi: CHILANGARLIK ISHLARI

Mavzu №10Metallarga rezba ochish.

№	Bajariladigan ishlar Mazmuni	Moslamalar, asboblari va Xomashyolar	Eskizlar, chizmalar, rasmlar	Bajarish tartibi
1	Topshiriq bilan tanishish	Metall plastinalar (100x32x8 mm) Tiski		1. Bajariladigan ishlar mazmuni va bajarish tartibi bilan to'liq tanishib chiqish 2. Ishning bajarilish tartibi bo'yicha tushunmagan o'quvchilar savollar berishi
2	Ish o'rini tashkil etish	1.Chilangarlik verstage 2.Gira 3.Tekislash taxtasi 4.Bolg'a 5. Egov 6. Metall plastina		1.Ishlatiladigan asboblari sozligi tekshiriladi 2.Oyoq ostiga qo'yiladigan taglik (panjara) dan yoki ko'tariladigan girali dastgohlardan foydalanib gira ishlovchining bo'yiga moslab o'rnatiladi
3	Метчик (М8, М10, М12) Метчик туткич Тиски.	1.Chilangarlik verstage 2.Metallplastinalar (100x32x8 mm) Tiski		1. Metall plastinaga rezba ochish
4	Ochilgan rezbani qabul qilish	1.Chizg'ich 2.shtangensirk		Tayyorlangan mahsulotni ishlab chiqarish ta'limi ustasi baholaydi

O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRISHINI BAHOLASH MEZONI.

Mavzu: Parchinlash. Modulni oʻrganishga ajratilgan vaqt- 6 soat. Sana _____	BAHOLASH VARAQASI																			
	Oʻquvchilarning ismi sharifi:																			
Baholash mezonlari	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	15	16	17	18	19	20	
I .Ish oʻrnini tashkil etish																				
1.Asbob uskunalarni toʻgʻri tanlanganligi																				
2. Texnika xavfszligi Qoidalariga rioya qilganligi.																				
II. Amaliy koʻnikmalari																				
1.Jixozlardan toʻgʻri foydalanish																				
2.Oʻlchash va rejalash ishlarini bajarilishi																				
3.Mustaqil va javobiy ishlashi																				
4.Topshriqdagi kamchiliklarni bartaraf etish																				
III. Test natijalari																				
JAMI:																				

Izoh: 1. Topshiriqning bajarilishi besh balli tizim asosida baholanadi. Bunda ushbu topshiriqning tarkibiga kiruvchi barcha faoliyat turlari inobatga olinib, ularning har biriga baho berilishi shart.

2. Topshiriq bo'yicha o'quvchining yakuniy bahosi esa har-bir faoliyat turi bo'yicha olingan baholarning jami topilib, ushbu faoliyat turlarining soniga bo'linadi.

3. Qoniqarsiz baho olgan o'quvchilar ma'muriyat ko'rsatgan muddatda mashqlarni qayta topshiradi

Imzo _____

Sana _____

“TASDIQLAYMAN”
 Ishlab chiqarish ta’limi
 bo’yicha direktor
 o’rinbosari
 _____ S.Mirzaliyev
 “_____” _____ 2021yil

O’quv amaliyoti mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi
11-Mavzu: Parchinlash
O’quv mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi modeli

Vaqt; 240 daqiqa.	Ta’lim oluvchilar soni nafar
<i>O’quv mashg’ulotining shakili va turi</i>	Amaliy ,o’quv amaliyoti
<i>O’quv mashg’ulotining rejasi</i>	1.Kirish. 2.Parchinlash ishlari bilan tanishish. 3.Metallarni parchinlashga tayyorlash. 4.Belgilangan tartibda metallarni parchinlash.
<i>O’quv mashg’ulotining maqsadi:</i> elektr chilangar kasbi bo’yicha chilangarlik ishlarida metallarni to’g’rilash to’g’risida ma’lumotlar berish, amaliy ish bajarib ko’nikma va malaklarini shakillantirish	
<i>O’qitish natijalari</i>	Ushbu mavzuni o’zlashtirish natijasida o’quvchida shakillanadigan asosiy bilim, ko’nikma va malaklarini yoki kompetensiyahi rivojlantirish.
<i>Pedagogning vazifalari</i> 1.Yangi mavzu bilan tanishtirish 2. Mavzu bo’yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish 3.Bajariladigan ishlarni ko’rsatib berish 4. Texnika havfsizligidan yo’riqnoma berish. 5.Bajarilgan ishlar bo’yicha yo’l qo’yilgan xatoliklarni ko’rstish	<i>O’quv faoliyati natijalari.</i> 1.Uyga vazifani takrorlab aytib berish. 2.Yangi mavzuni gapirib beradilar. 3.Amaliy ishlarni takrorlab ko’rsatadilar . 4.Texnologik xarita asosida mashqlarni yo’riqnoma asosida mustaqil bajaradi 5.Ishni bajarishda yo’l qo’yilgan xatoliklarni bartaraf etadilar.
<i>O’qitish metodlari</i>	Tushuntirish, ko’rsatish, yo’riqnoma berish va mashq.
<i>O’qitish vositalari</i>	Yo’riqli texnologik xarita, kerakli jixoz va asboblari. Ko’rgazmali qurollar, proektor kompyuter, grafiklar, namunalar, yo’riqnomalar.
<i>O’quv faoliyatini tashkil etish shakli.</i>	Ommaviy, jamoaviy, guruxli,juftlikda yakka tartibda
<i>Oqitish sharoiti</i>	Maxsus chilangarlik asboblari bilan jixozlangan o'quv amaliyoti ustaxonasi.
<i>Qayta aloqaning usul va vositalari</i>	Nazorat, bajarilgan ishlarni tekshirish, og'zaki savol-javob,xisobot va taqdimot

O'quv amaliyoti mashg'ulotining texnologik haritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (15- daqiqa)	Tashkiliy qisim: 1.Ta'lim oluvchilarning davomatini tekshiradi. 2. .Ta'lim oluvchilarning mashg'ulotga tayyorgarligini nazorat qiladi. 3.Amaliy mashg'ulot nomi, rejasi, maqsad va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi. 4. Amaliy mashg'ulotning baholash mezonlari bilan tanishtiradi. 5.Xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishni eslatadi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radilar. Amaliyotga xavfsizlik texnikasi,sanitariya va gigiyena talablariga rioya qilgan holda mahsus kiyimda keladi. Xavfsizlik texnikasi jurnaliga imzo qoyadilar. Tinglaydilar.
2-bosqich. Asosiy qisim (200-daqiqa)	Kirish yo'riqnomasi.(50 daqiqa). O'quvchilar bilimini faollashtirish. 1.Tezkor-so'rov, savol-javob,aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. Metallarni qirqish bayoni; 2.O'quv amaliyoti mavzusi bo'yicha umumiy ma'lumot beradi, ish jarayonini tushuntiradi. Joriy yo'riqnoma.(135-daqiqa) Metallarni qirqish bo'yicha amaliy mashq bajarish. 3. Ta'lim oluvchilarni ish joylariga taqsimlab amaliy ish yuzasidan yo'riqnoma xarita hamda mustaqil ish bajarish uchun hom-ashyo tarqatadi va ko'rsatmalar beradi. 4.Mustaqil ishlarni bajarilishini maqsadli aylanish vaqtida nazorat qiladi va ish jarayonida o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni ko'rsatadi. Yakuniy yo'riqnoma(15-daqiqa) 5.Mashg'ulot tugaganidan so'ng ish joylarini talab darajasiga keltiradi. Tayyorlangan mahsulotlarni qabul qiladi.	.Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar, chizadilar, yozib oladilar. Ta'lim oluvchilar o'z ish o'rniga o'tadilar, mashg'ulot rahbari ko'rsatmalari va yo'riqli texnologik xaritaga rioya qilgan holda metallarni qirqadilar. Xatolarni to'g'rilaydilar. Foydalanilgan jihozlarni mashg'ulot rahbariga topshiradilar. Ish o'rnini tozalaydilar.
3-bosqich Yakuniy qisim (25-daqiqa)	Yakunlash; 1.O'quvchilarni amaliy mashg'ulot bo'yicha baholarini e'lon qiladi. 2.Kelgusi kasbiy faoliyatlarida amaliyotda bajargan ishlarining ahamiyati va muhimligiga o'quvchilar e'tiborini qaratadi. 3.Kelgusi mashg'ulot mavzusi bilan tanishtirib uyga vazifa beradi.	Tinglaydilar. Topshiriqni va uyga vazifani yozib oladilar

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi

X.Axmatov

11- MA'RUZA: Parchinlash

Reja:

1. Parchinlash jarayoning mohiyatini o'rganish.

2. Parchin mixlarni o'rganish.

Detallarning rezvali birikmalarini ajraladigan birikmalardir. Ularni eg'ish va qisimlarga ajratish mumkun.

Texnikada boshqa xil birikmalar ajralmaydigan birikmalar xam uchraydi. Ularni qisimlarga ajratish uchun biriktiradigan detalni yoki biriktirilgan matirialni buzishga tug'ri kelad. Ajralmaydigan birikmalarga parchin mixli valtsovkalangan payvantlangan kovsharlangan elimli birikmalar kiradi. Parchin mixli birikmalar quzg'almas va quzg'aluvchan buladi. Parchin mixli quzg'almas birikmalar xar xil matiriallar kanstruksiya (kupriklar, parchinlangan balkalar, ramalar va xokozo) qozon xamda rezirvorlarda parchin mixli quzg'aluvchan birikmalar sharnarli birikmalarda (xususan yassi jag'li ambir qaychi kabi asboblarda) qulaniladi.

Xozirgi vaqitda parchin mixli birikmalar payvantlab biriktirish uchun detallarni qizdirish mumkun bulmagan xollarda payvontlab bulmaydigan matiriallarni biriktirishda takroriy zarb va vibratsion nagruzkalar tushadigan birikmalarda shuning dek yaka parchin mixlar bilan biriktirishda qulaniladi. Bunday birikmalar iloji boricha payvant va elimli birikmalar bilan almashtiriladi parchin mixli birikmalar parchinlash parchin mixlar vositasida detallarning quzg'almas birikmasini xosil qilish opiratsiasi yordamida olinadi.

Parchin mix quyma kalak deb ataluvchi kallakli silindrik sterjin. Parchin mix biriktiriladigan detallarning teshigiga tiqiladi va uning chiqib turgan uchi dastakli usulda (dastaki parchinlash) yoki parchinlash mashinalari yoki mexanizmlari (mashinada parchinlash) bilan parchinlanadi. Shunda detallarni biriktiradigan tutashturuvchi kallak yuzaga keladi.

Parchin mixlar yarim doiraviy yarim doiraviy past, yashirin yarim va yasi kalakli qilib tayyorlanadi.

Kupincha yarim doiraviy kalakli parchin mixlar ishlatiladi ular bilan olingan birikmalar eng mustaxkam buladi. Yarim doiraviy past kallakli parchin mixlar ulardan kallagining pastligi (1.5 marta) va kallagi diometirinig bir oz kattaligi bino barin tayyanch sirti kattaligi bilan far qiladi. Kalagi chiqib turmaydigan birikma talab qilinsa (tormiz ilashish kons simon kalakli yashirin parchin mixlar ishlatiladi. Parchinlash turlari: Ikki yoki undan ortiq detallarni parchin mixlar bilan biriktirish *parchinlash* deb ataladi. Bu turdagi birikmalarni ajratishga ehtiyoj tug'ilsa, parchin mixlarni sindirib detallarni bo'laklarga bo'lish mumkin. Parchin mixli biriktirish usuli metall konstrutsiya, balkalar yasashda, kemasozlik, samolyotsozlikda hamda ko'prik va fermalar qurishda keng qo'llaniladi.

Parchinlash quyidagi jarayonlardan iborat:

- parchinlab biriktiriladigan detallarni teshish yoki parmalash;
- teshiklardan parchin mix kallagiga moslab rax hosil qilish;
- yashirin kallaklari uchun zenkovkalash usuli bilan konus sirt yasash;
- teshikka parchin mixlarni qo'yish;

Parchin mixning biriktirilgan detaldan chiqib turgan uchini pachoqlab unga shakil berish.

Parchinlash ikki usulda qizdirish va sovuq usulda bajarilishi mumkin. Chilangarlik ishlarida parchinlashning faqat sovuq usulidan foydalaniladi. Qizdirish usuli maxsus tsehlarda qo'llaniladi. Bunda parchin mixni 1000° - 1100° S da qizdirib teshikka tiqiladi. Parchin mix sovugandan keyin biriktiriladigan metallar tortiladi. Mixning uchida qattiq zarb berish yoki presslash yordamida kallak hosil qilinishi mumkin.

Qo'llaniladigan asbob, jihoz hamda parchin mixga beriladigan zarba yoki bosim turlariga ko'ra parchin mixlar uch turga bo'linadi:


- dastakli asboblarning zarbasi uchun;
- pnevmatik bolg'alar zarbasi uchun;
- press usuli uchun parchin mixlar;

Parchin mixlar hisobiga detalning og'irlashuvi, zarb ta'sirida teshiklarda parchin mixlarning bo'shashib qolishi, detallarni biriktirishda operatsiyalarni zenkovkalash, ishlashda ortiqcha shovqin va tebranishlarning odam organizmiga salbiy ta'siri detallarni parchinlab biriktirishning kamchiliklari hisoblanadi. SHuning uchun ham parchinlash usulini takomillashtirish bilan birga ishlab chiqarishda yig'ish-biriktirishning maqbul usuli bo'lgan elektr-gaz payvandlari keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, issiqqa chidamli yelimlar (VK 32200, VK 32-250, IP-9) bilan detallarni yopishtirib birikmalar hosil qilinadi.

Parchinlash turlari. Parchin mix kallakli metall chiviq bo'lib, uning yarim yumaloq baland kallakli (chiviq diametri 1-36 mm gacha, uzunligi 2-180 mm gacha), yarim yumaloq past kallakli (04-80 mm gacha), yassi kallakli (02-36 mm, uzunligi 4-180 mm), yashirin kallakli (01-36 mm, uzunligi 2-180 mm), yarim yashirin kallakli (02-36 mm, uzunligi 3-210 mm) turlari bor (46-rasm, a, b, v, g, d).

Parchin mixlar po'lat (St2, St3), mis (M3, MT), jez (L63), alyumin qotishmalaridan (AM5P, D18, AD1). Zanglamaydigan (X18N9T) yoki legirlangan (09G2) po'latdan yasaladi. Odatda, parchin mixlar parchinlanadigan metallar rusumida tayyorlanadi. Aks holda parchin zanglash va birikkan joyidan yemirilishi mumkin. Ba'zan maxsus turdagi portlaydigan parchin (AN-1504) mixlardan foydalaniladi. Portlaydigan parchin mixlarning uchidagi chuqurchaga portlovchi modda to'ldirilib, atmosfera namliklaridan himoyalab berkitilgan. Bunday mixlarning uzunligi 6 mm dan 20 mm gacha, parchinlanadigan paketning qalinligi 1,6-25 dan 14,1-15 mm gacha.

Parchinlashda mixni teshikka bolg'a zarbasi bilan



7-расм. Парчин михлар:

а—ярим юмалоқ баланд каллакчи; б—ярим юмалоқ паст каллакчи; в—ясси каллакчи; г—яширин каллакчи; д—ярим яширин каллакчи; е—портлайдиган икки камерали.

cho'ktiriladi (sovuq holda), keyin kallagiga elektr isitgichning uchini 2-3 sekundga qo'yiladi, harorati 130° - 160° S ga yetgan zaryad portlaydi, natijada, chiviqning uchi kengayadi va qalpoq hosil bo'ladi.

Parchinlash

choklarining turlari.

Detallarning parchin mixlar bilan birikkan joyi **parchinlash choki** deb ataladi. Parchin mixli birikmaning turi va qo'llanilishiga ko'ra, ular uchta-pishiq, zich va pishiq-ziq xillarga bo'linadi.

Pishiq choklarni mustahkam birikmalarda qo'llaniladi.

Mustahkamlikka erishish uchun buyumning bir necha joyidan qatorlab parchinlash kerak.

Bu usul balka, kolonna, ko'priq va boshqa metall konstruktsiyalarni parchinlashda qo'llaniladi.

Zich choklar germetik konstruktsiyalarda sovuq holda parchinlash usulida bajariladi.

Konstruktsiyada germetiklikni ta'minlash uchun turli-tuman qistirma materiallaridan (olif yoki surik shimdirilgan karton, gazlama) foydalaniladi, bunday choklar rezervuarlar, yuqori bosim talab qilmaydilar tsesternalar va shunga o'xshash buyumlarni tayyorlashda qo'llaniladi.

Pishiq-zich choklar yetarli darajada germetik bo'ladi, suv, gaz va boshqa suyuqliklarni o'tkazmaydi. Bug' qozonlari, yuqori bosimli rezervuarlar pishiq-zich choklarga ega. Bunday choklar maxsus parchinlash mashinalari yordamida qizdirish usuli bilan bajariladi.

Har bir parchin birikmada parchin mixlar bir, ikki qator va undan ortiq holda joylashtiriladi. SHunga muvofiq, parchin choklar bir, ikki hamda ko'p qatorli bo'lishi bilan birga parallel va shaxmat tartibida joylashtirilishi mumkin.

Qo'lda va mexanizatsiyalash vositasida parchinlash

Qo'lda parchinlash. Qo'l bilan parchinlashda kvadrat muhrali bolg'a, tutib turgich, tortqi, siqqich, chekanlar ishlatiladi.

Tutib turgich parchinlashda tayanch vazifasini bajaradi. Uning shakl va o'lchamlari parchinlanadigan detallarning shakli, parchin mixning diametri hamda parchinlash usuliga qarab tanlanadi. Og'irligi bolg'acha og'irligidan 3-5 marta ortiq

bo'lishi kerak. Siqqich mixlarning uchlarida qalpoq shaklini hosil qilish uchun ishlatiladi. Uning bir uchi parchin mix qalpog'i shaklidagi chuqurchaga ega.

Tortqi bir uchi teshik sumba shaklidagi chiviqdir. U parchinlanadigan listlarni tortishga xizmat qiladi. Parchin mixlar diametri va uzunligini hisobga olib tanlanadi. CHiviq uzunligi parchinlanadigan materialning qalinligiga muvofiq bo'lishi kerak.) Chekan ishchi sirti yassi bo'lgan chilangarlik bolg'asidir, u parchin chokning germetikligini ta'minlaydi. parchinlanadigan detallarning qalinligi (R_1 va R_2) hamda chiviqning tutashtiruvchi kallak hosil qilish va tirqishni to'ldirish uchun chiqib turadigan qismi uzunligi (L_0) ning yig'indisidan iborat.

Tutashtiruvchi kallak hosil qiluvchi parchin mix chivig'ining uzunligi $L_qS+(0,8-1,2)d$ formula bilan aniqlanadi. Bu yerda: S -parchinlanadigan list qalinligi, mm: d -parchin mix diametri, mm. Yarim yumaloq tutashtiruvchi kallak hosil qilish uchun $L_qS+(1,2-1,5)d$ formulasidan foydalaniladi.

Parchin markazidan parchinlangan list qirg'og'igacha $1,5d$ bo'lishi kerak. Teshikning diametri parchin mix diametridan kattaroq bo'ladi:

Parchinlash turlari va usullari. Qo'l bilan parchinlashning ikki turi bor: bir tomonlama va ikki tomonlama. Agar parchinlanadigan detalning orqa tomonidan erkin harakat qilish imkoni bo'lsa ikki tomonlama, aksincha bo'lsa, bir tomonlama parchinlanadi. SHunga ko'ra, parchinlashning ochiq, to'g'ri, berk va teskari usullari bor. To'g'ri parchinlash usulida bolg'aning zarbasini to'g'ridan to'g'ri chiviqning tutashtiruvchi uchiga beriladi. Bu usul listni teshish yoki parmalashdan boshlanadi. Parchin mix cho'ktirilgan detalning orqa tomoniga, ya'ni kallak ostiga tutib turgichni qo'yib tutashtiruvchi tomonida shakl hosil qilinadi. Parchinlanadigan listlarga bolg'a zarbasi qalpoq bo'ylab beriladi.

Teskari parchinlash usulida bolg'a zarbasi mixning kallagidan beriladi, portlaydigan va quvurli parchin mixlar ishlatiladi. Bu usul tutashtiruvchi tomonda parchinlash operatsiyasini bajarib bo'lmaydigan hollarda qo'llaniladi.

Mashinada parchinlash. Mashinada parchinlashning: mehnat unumdorligi va parchinlash sifatining yuqoriligi, kallakning sifatli chiqishi, ishlovchilar sonining kamligi, barcha operatsiyalarning mashinada bajarilishi kabi qator afzalliklari bor.

Parchinlash mashinalarining statsionar va ko'chma turlari ishlab chiqariladi. Statsionar mashinalarning ish unumdorligi yuqori bo'lish bilan birga kamchiliklari ham mavjud. Masalan, hajmi juda katta bo'lib, ularni ish joyiga keltirish uchun qo'shimcha maxsus konveyerlar, uskunalar kerak bo'ladi. Pnevmatik mashinalar gidravliklariga nisbatan arzon tushadi. Asosan, ko'chma modellari ishlab chiqiladi, ammo ular statsionar vazifasini bajarishi mumkin.

Dastakli ko'chma pnevmatik press PRP5-2 yakka choklarning qo'l yetmaydigan joylarini parchinlashda keng qo'llaniladi. Uning ish unumdorligi pnevmatik bolg'aga nisbatan 5 marta yuqori. Bu pressda 4 mm qalinlikdagi listlarni uzunligi 4 mm gacha bo'lgan po'lat parchin mixlar bilan parchinlash mumkin. Pressning pnevmatik tsilindri va ponali mexanizmi bo'lib, porshenning harakati qisqichning ish harakatiga aylanadi.




Yo'riqli texnologik harita

(o'quv amaliyoti uchun)

Kasb kodi va nomi: 3.51.01.02.Elektr stansiyalar uskunalarini ta'mirlash chilangari.

O'quv amaliyoti nomi: CHILANGARLIK ISHLARI

Mavzu №11 Metallarni parchinlash.

№	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar, asboblari va Xomashyolar	Eskizlar, chizmalar, rasmlar	Bajarish tartibi
1	Topshiriq bilan tanishish	Parchin mixlar		1. Bajariladigan ishlar mazmuni va bajarish tartibi bilan to'liq tanishib chiqish 2. Ishning bajarilish tartibi bo'yicha tushunmagan o'quvchilar savollar berishi
2	Ish o'rnini tashkil etish	1. Chilangarlik verstagi 2. Tekislash taxtasi 3. Bolg'a 4. Egov 5. Metall plastina 6. Parchin mix		1. Ishlatiladigan asboblari sozligi tekshiriladi 2. Oyoq ostiga qo'yiladigan taglik (panjara) dan yoki ko'tariladigan girali dastgohlardan foydalanib girali ishlovchining bo'yiga moslab o'rnatiladi
3	Metallni parchinlashga tayyorlash	1. Chilangarlik verstagi 2. Tekislash taxtasi 3. Bolg'a 4. Egov 5. Metall plastina 6. Parchin mix		Metallardan parchin mixlarni o'tkazib parchinlashga tayyorlash
4	Metallarni parchinlash	1. Chilangarlik verstagi 2. Tekislash taxtasi 3. Bolg'a 4. Egov 5. Metall plastina 6. Parchin mix		Metallarni parchin mix bilan birlashtirib ajralmas birikma xosil qilish
5	Tayyor bo'lgan maxsulotni tekshirish			Tayyorlangan Mahsulotni ishlab chiqarish ta'lim ustasi baholaydi.

O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRISHINI BAHOLASH MEZONI.

Mavzu: Metallarni parchinlash Modulni oʻrganishga ajratilgan vaqt- 6 soat. Sana _____	BAHOLASH VARAQASI																			
	Oʻquvchilarning ismi sharifi:																			
Baholash mezonlari	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	15	16	17	18	19	20	
I .Ish oʻrnini tashkil etish																				
1.Asbob uskunalarni toʻgʻri tanlanganligi																				
2. Texnika xavfszligi Qoidalariga rioya qilganligi.																				
II. Amaliy koʻnikmalari																				
1.Jixozlardan toʻgʻri foydalanish																				
2.Oʻlchash va rejalash ishlarini bajarilishi																				
3.Mustaqil va javobiy ishlashi																				
4.Topshriqdagi kamchiliklarni bartaraf etish																				
III. Test natijalari																				
JAMI:																				

Izoh: 1. Topshiriqning bajarilishi besh balli tizim asosida baholanadi. Bunda ushbu topshiriqning tarkibiga kiruvchi barcha faoliyat turlari inobatga olinib, ularning har biriga baho berilishi shart.

2. Topshiriq bo'yicha o'quvchining yakuniy bahosi esa har-bir faoliyat turi bo'yicha olingan baholarning jami topilib, ushbu faoliyat turlarining soniga bo'linadi.

3. Qoniqarsiz baho olgan o'quvchilar ma'muriyat ko'rsatgan muddatda mashqlarni qayta topshiradi

Imzo _____

Sana _____

“TASDIQLAYMAN”
 Ishlab chiqarish ta’limi
 bo’yicha direktor
 o’rinbosari
 _____ S.Mirzaliyev
 “_____” _____ 2021yil

O’quv amaliyoti mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi
12-Mavzu: Kavsharlash, qoviyalash va yelimlab biriktirish.
O’quv mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi modeli

Vaqt; 240 daqiqa.	Ta’lim oluvchilar soni nafar
<i>O’quv mashg’ulotining shakili va turi</i>	Amaliy ,o’quv amaliyoti
<i>O’quv mashg’ulotining rejasi</i>	1.Kirish. 2. Kavsharlash, qoviyalash va yelimlash ishlari bilan tanishish. 3. Metallarni kavsharlash, qoviyalash va yelimlashga tayyorlash 4. Belgilangan tartibda metallarni kavsharlash, qoviyalash va yelimlash.
<i>O’quv mashg’ulotining maqsadi:</i> elektr chilangar kasbi bo’yicha chilangarlik ishlarida metallarni to’g’rilash to’g’risida ma’lumotlar berish, amaliy ish bajarib ko’nikma va malaklarini shakillantirish	
O’qitish natijalari	Ushbu mavzuni o’zlashtirish natijasida o’quvchida shakillanadigan asosiy bilim, ko’nikma va malaklarini yoki kompetensiyahi rivojlantirish.
<i>Pedagogning vazifalari</i> 1.Yangi mavzu bilan tanishtirish 2. Mavzu bo’yicha bajariladigan ishlarni tushuntirish 3.Bajariladigan ishlarni ko’rsatib berish 4. Texnika havfsizligidan yo’riqnoma berish. 5.Bajarilgan ishlar bo’yicha yo’l qo’yilgan xatoliklarni ko’rstish	<i>O’quv faoliyati natijalari.</i> 1.Uyga vazifani takrorlab aytib berish. 2.Yangi mavzuni gapirib beradilar. 3.Amaliy ishlarni takrorlab ko’rsatadilar . 4.Texnologik xarita asosida mashqlarni yo’riqnoma asosida mustaqil bajaradi 5.Ishni bajarishda yo’l qo’yilgan xatoliklarni bartaraf etadilar.
<i>O’qitish metodlari</i>	Tushuntirish, ko’rsatish, yo’riqnoma berish va mashq.
<i>O’qitish vositalari</i>	Yo’riqli texnologik xarita, kerakli jixoz va asboblari. Ko’rgazmali qurollar, proektor kompyuter, grafiklar, namunalar, yo’riqnomalar.
<i>O’quv faoliyatini tashkil etish shakli.</i>	Ommaviy, jamoaviy, guruxli,juftlikda yakka tartibda
<i>Oqitish sharoiti</i>	Maxsus chilangarlik asboblari bilan jixozlangan o'quv amaliyoti ustaxonasi.
<i>Qayta aloqaning usul va vositalari</i>	Nazorat, bajarilgan ishlarni tekshirish, og'zaki savol-javob,xisobot va taqdimot

O'quv amaliyoti mashg'ulotining texnologik haritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (15- daqiqa)	Tashkiliy qisim: 1.Ta'lim oluvchilarning davomatini tekshiradi. 2. .Ta'lim oluvchilarning mashg'ulotga tayyorgarligini nazorat qiladi. 3.Amaliy mashg'ulot nomi, rejasi, maqsad va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi. 4. Amaliy mashg'ulotning baholash mezonlari bilan tanishtiradi. 5.Xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishni eslatadi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radilar. Amaliyotga xavfsizlik texnikasi,sanitariya va gigiyena talablariga rioya qilgan holda mahsus kiyimda keladi. Xavfsizlik texnikasi jurnaliga imzo qoyadilar. Tinglaydilar.
2-bosqich. Asosiy qisim (200-daqiqa)	Kirish yo'riqnomasi.(50 daqiqa). O'quvchilar bilimini faollashtirish. 1.Tezkor-so'rov, savol-javob,aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. Metallarni qirqish bayoni; 2.O'quv amaliyoti mavzusi bo'yicha umumiy ma'lumot beradi, ish jarayonini tushuntiradi. Joriy yo'riqnoma.(135-daqiqa) Metallarni qirqish bo'yicha amaliy mashq bajarish. 3. Ta'lim oluvchilarni ish joylariga taqsimlab amaliy ish yuzasidan yo'riqnomali xarita hamda mustaqil ish bajarish uchun hom-ashyo tarqatadi va ko'rsatmalar beradi. 4.Mustaqil ishlarni bajarilishini maqsadli aylanish vaqtida nazorat qiladi va ish jarayonida o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni ko'rsatadi. Yakuniy yo'riqnoma(15-daqiqa) 5.Mashg'ulot tugaganidan so'ng ish joylarini talab darajasiga keltiradi. Tayyorlangan mahsulotlarni qabul qiladi.	.Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar, chizadilar, yozib oladilar. Ta'lim oluvchilar o'z ish o'rniga o'tadilar, mashg'ulot rahbari ko'rsatmalari va yo'riqli texnologik xaritaga rioya qilgan holda metallarni qirqadilar. Xatolarni to'g'rilaydilar. Foydalanilgan jihozlarni mashg'ulot rahbariga topshiradilar. Ish o'rnini tozalaydilar.
3-bosqich Yakuniy qisim (25-daqiqa)	Yakunlash; 1.O'quvchilarni amaliy mashg'ulot bo'yicha baholarini e'lon qiladi. 2.Kelgusi kasbiy faoliyatlarida amaliyotda bajargan ishlarining ahamiyati va muhimligiga o'quvchilar e'tiborini qaratadi. 3.Kelgusi mashg'ulot mavzusi bilan tanishtirib uyga vazifa beradi.	Tinglaydilar. Topshiriqni va uyga vazifani yozib oladilar

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi

X.Axmatov

12-MA'RUZA: Kavsharlash

Mashina detallari, qurilish konstruksiyalari va boshqa buyumlarni yelimlab biriktirish ham mumkin. Yelimlangan birikmalar suv va moy o'tkazmaydi, yuqori darajada germetik, titrash va zarblarda bardoshli bo'ladi. Yelimlab biriktirish

parchinlash, payvandlash, kavsharlash bilan biriktirish usullarining o'rnini bosa oladi. Yelimlab biriktirish turli usullar yordamida amalga oshiriladi.

Har xil turdagi yelimlovchi moddalar bo'lib, ular orasida BF yelimi eng ko'p tarqalgan. Bu yelimlar BF-2, BF-4, BF-6 va boshqa rusumlarda ishlab chiqariladi.

Universal BF-2 yelimi bilan metall, oyna, farfor, bakelit, tekistolit va boshqa materiallar yelimlanadi. Yelimli birikma 80°S gacha qizdirilganda ham o'zining mustahkamligini saqlab qoladi. Bu yelim bilan qoplamani diskka yopishtirish mumkin. BF-2 yelimi benzin va moyga bardoshli bilan birga yelimlangan sirtlarni zanglashdan saqlaydi. Yelimni germetik berkitiladigan idishlarda saqlanadi, unga suv qo'shib bo'lmaydi. BF-2 yelimi yaxshilab tozalangan sirtga yupqa qilib surkaladi, keyin $20-60^{\circ}\text{S}$ da 50-60 minut davomida quritiladi. Plyonka hosil bo'lgan sirtga yana 1-2 marta yupqa qilib yelim surkab, uni quritish kerak. SHundan so'ng birkmani yopishtirib $140-150^{\circ}\text{S}$ haroratda 30-60 minut quritiladi.

BF-4 va BF-6yelimlari elastik choklar hosil qilishda ishlatiladi, shuning uchun tikuvchilikda gazmollar, rezina, fetrlar yelimlab yopishtiriladi.

Epoksidyelimlar (ED-5, ED-6, ED-40) bilan mustahkam birikmalar hosil qilish mumkin. Bunday yelimni tayyorlashda epoksid smolaga qotirgich (polietilen-yarimsmola) qo'shiladi. Epoksid yelimining tarkibi o'n hissa qotirgich, yuz hissa epoksid smolasidan iborat. O'nga to'ldirgich sifatida alyumin yoki bronza, portland tsementi, cho'yan kukuni, shisha tolalarni qo'shish mumkin. To'ldiruvchilar yelimning qayshqoqligi va mustahkamligini oshiradi.

Issiqqa chidamliyelimlar titrash, yuqori harorat sharoitida ishlovchi metallar va nometall materiallarni biriktirishda ishlatiladi. VK 32-200 yelimi bilan biriktirilgan detal 60 dan 120°S gacha haroratda ishlash mumkin, 200°S dan ortiq haroratda uzlo'qsiz ishlashga bardosh beradi. Yelim birinchi marta surkalganda 15-20 minut 20°S da, ikkinchi marta surkalganda esa 90 minut quritiladi. Yelim suv, benzin va moyga chidamli.

BFK-9 issiqqa bardosh beradigan yelimlardan biri bo'lib, u metall detallarni nometalar bilan biriktirishda qo'llaniladi. Yelimni 20°S haroratda quritiladi. Bu ish ikkinchi marta takrorlangandan keyin bir soat vaqt o'tkazib sirtlar yopishtiriladi.

Elimlash texnologiyasi. Yelimlanadigan material va yelim rusumidan qat'i nazar yelimlash quyidagi bosqichlardan iborat.

Sirtlarni yelimlashga tayyorlash uchun ularni ifloslik, zang, moydan tozalanadi va quritiladi. Biriktiriladigan yuzalarni bir-biriga moslab g'adir-budirlik hosil qilish uchun ishlov beriladi. So'ng biriktiriladigan materiallar va yelimli birikmaning vazifasiga qarab yelim tanlanadi.

Materiallarning xossa va xususiyatlariga ko'ra yelim tanlash

Elimlab biriktiriladigan materiallar	Elim rusumi
Metall, chinni, tekstolit, plastmassa va boshq.	BF-2
Rezina-metall, plastmassa, issiqlik izolyatsiyasi materiallari-	88N
Metall, plastmassa, yog'och va boshq	EPD epoksid

Har qaysi zagotovkaning bir tomoniga qo'lda (mo'yqalam, shpatelb yoki pulbverizator yordamida) 0,5-0,1 mm qilib yelim surkaladi.

XavfsZlik texnikasi. Kavsharlovchining ish o'rni ventilyatsiya va suv bilan ta'minlangan maxsus xonaga joylashtirilishi kerak. Bunga sabab shuki, kavsharlash va oqartirishda kislota hamda ishqorlar ishlatiladi. Ular esa teriga tekkanda kuydirib, to'qimalarni yemiradi. Ularning bug'lari nafas olish organlariga zararli ta'sir qiladi. Bundan tashqari kavsharlashda qizdirish manbalari va yonuvchi modalar ishlatiladi. SHuning uchun ish o'rnida yong'inga qarshi qo'shimcha tadbirlar qo'zda tutilishi, ya'ni metall ekranlar bo'lishi lozim va h.k.

Kislota va ishqorlar zich tiqinli shisha idishlarda saqlanadi. Ularni ishlatayotganda rezina qo'lqop hamda etik kiyib olish, rezinalangan fartuk, himoya ko'zoynagi taqib olish zarur.

Kavsharlashning nazariy asoslari

Kavsharlash deb shunday texnologik jarayonga aytiladiki, bu jarayonda asosiy metlall erimaydi, kavshar eritilib biriktilyotgan ikkita metall orasi to'ldiriladi va kavshar chok hosil bo'ladi.

Ta'rifdan shuni anglash mumkinki, kavshar birikma hosil qilish jarayoni qizdirish bilan bog'liqdir. Kavshar birikmani hosil qilish uchun qizdirishdan tashqari yana ikkita asosiy shart bajarilishi kerak:

- 1) kavsharlash jarayonida metall yuzasidan oksid qoplamanı tozalash kerak.
- 2) biriktirilyotgan tirqish oralig'iga erigan biriktiruvchi metall uzatish kerak.

Kavsharlash jarayoni payvandlash jarayoni bilan ko'pgina o'xshashlik tomonlari bor, ya'ni suyuqlantirib payvandlash bilan o'xshash.

Yuzaki o'xshashliklardan tashqari quyidagi prinsipial farqlari mavjud.

- 1) Agar suyuqlantirib payvandlashda payvandlanayotgan metall va eritib qo'shilayotgan metall payvandlash vannasida suyuq holatda bo'lsa, kavsharlashda esa payvandlanayotgan buyum eritilmaydi. Biriktirilyotgan qirralarni eritmasdan payvand birikma hosil qilish kavsharlash jarayonining asosiy avzallik tomoni hisoblanadi.

- 2) Kavsharlashda chok shakllanishi, ya'ni ikkita detal orasidagi tirqish erigan kavshar qo'shimcha material tomchilari yordamida to'ldirilsa suyuqlantirib payvandlashda bunday jarayon kuzatilmaydi.

- 3) Kavsharlash suyuqlantirib payvandlashga nisbatan payvandlanayotgan metallning erish haroratidan ancha past bo'lgan turli xil haroratlarda, ya'ni kavshar erish haroratida bajarilishi mumkin.

Ushbu farqlar suyuqlantirib payvandlashga nisbatan kavshar chokni hosil qilish texnologik jarayoni tubdan farq qiladi.

Kavsharlash jarayonlarining tasnifi

Kavsharlash quyidagicha klassifikatsiyalanadi: birinchidan, fizik-kimyoviy jarayonlarga nisbatan, ikkinchidan kavsharlashning turli hil texnologiyalari bo'yicha.




Kavsharlash usullarining klassifikatsiyasi.

Kavsharlash jarayonlarning fizik-kimyoviy xususiyatlar bo'yicha quyidagi asosiy usullariga va turlariga ajratiladi:

- 1) kapillarli kavsharlash;
- 2) diffuzion kavsharlash;
- 3) kontaktli-reaksiyon kavsharlash;
- 4) reaksiyon-flyusli kavsharlash;
- 5) kavsharlash-payvandlash.

1) Kapillarli kavsharlash deb kavshar birikma hosil qilishning shunday usuliga aytiladiki, bunda birikma kapillar kuchlar ta'sirida hosil bo'ladi. Lekin kapillarli jarayon kavsharlashning barcha usullarida uchraydi, farqi kapillar kuch ta'siri ostida jarayon bajariladi.



Kapillar usulda kavsharlash sxemasi: a - kavsharlashdan oldin; b – kavsharlashdan keyin.


2) Diffuzion kavsharlash deb shunday texnologik jarayonga aytiladiki, bunda boshqa usullarga nisbatan yuqori haroratda va shu haroratni ushlab turish davomiyligi ko'proq bo'ladi.

Bundan maqsad kavsharlanayotgan material va kavshar komponentlarining o'zaro diffuziylanishi uchun bajariladi.

Diffuzion kavsharlashda kavshar va asosiy metallning kesim yuzasiga nisbatan, birinchidan kavshar va asosiy metallni eritib chokda qattiq qotishmani hosil qilib bajarish mumkin, buni atom-diffuzion kavsharlash deb ham ataydilar; ikkinchidan diffuzion kavsharlash jarayonida


chokda qiyin eriydigan mo'rt intermetallidlar hosil bo'lishi mumkin, bu holat reaksiyon diffuziya jarayonida hosil bo'lishi mumkin, bu o'z navbatida chok metalni erish harorati yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi, oqibatda issiq bardosh kavshar birikma hosil bo'lishiga olib keladi, bu reaksiyon-diffuzion kavsharlash deyiladi.

Masalan, erish harorati 855°C bo'lgan Pt-B tizimli kavshar bilan W ni kavsharlashda quyidagi reaksiya kechadi:



Bunday kavsharlangan chok qotishmasining erish harorati 2000°C dan yuqori bo'ladi.


3) Kontaktli reaksiyon kavsharlash deb, biriktirilayotgan metall va kavshar orasida efftektik tarkibli yoki likvidusning minimumida qattiq qorishma bilan yangi oson eruvchi qotishma hosil qilib faol reaksiya kechish jarayoniga aytiladi. Hosil bo'lgan oson eruvchi qotishma bilan buyumlar orasida tirqish to'ldiriladi, va kristalizatsiyalanish jarayonida kavshar birikma hosil qiladi. Biriktirilayotgan metall bilan kavsharni birgalikda ta'sirlanishi misni kavsharlashda qo'llaniladi. Mis buyumlar orasiga kumush kavshar o'rnatiladi va kavsharlanadi.



Kontaktli reaksiyon kavsharlash sxemasi: a - kavsharlashdan oldin; b - kavsharlashdan so'ng.


4) Reaksiyon-flyusli kavsharlash deb, asosiy metall va flyus orasidan kavsharni itarib chiqarish reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan jarayonga aytiladi. Reaksiyon-flyusli kavsharlash ikki variantda bajarilishi mumkin: kavshar qo'shmasdan va kavshar qo'shib.

Reaksiyon-flyusli kavsharlashda kavshar qo'shmasdan kavsharlashni aluminning flyus bilan kavsharlashda qo'rishimiz mumkin, bunda flyus tarkibida xlorli sink ko'proq tashkil etadi. Kavsharlashda biriktirilayotgan aluminning detali yuzasiga flyus qalinroq sepiladi. Xlorli sink va aluminning qizdirish natijasida quyidagi jarayon kechadi:



Xloriddan tiklangan sink bu holatda kavshar vazifasini bajaradi. U aluminning yuziga cho'kadi, tirqish oralariga cho'kadi va kavsharlanayotgan detallarni biriktiradi.

5) Kavsharlash-payvandlash deb suyuqlantirib payvandlash usullariga mos holda bajarishga aytiladi, lekin kavshar bilan bajariladi, qo'shimcha material sifatida kavshar ishlatiladi. Kavsharlash-payvandlash detallarning biriktirilayotgan qirralarini eritib va eritmasdan bajariladi. Faqat biriktirilayotgan detalning biri ya'ni oson eriydigan metali eritiladi.



Kavsharlash-payvandlashda chok hosil bo'lish sxemasi:

a - detal qirralarini eritmasdan; b - biriktirilayotgan detalning bittasini eritib.


Yuqorida ko'rib chiqilgan kavsharlash usullari turli xil qizdirish manbayilarini qo'llab ishlatiladi.

1) O'chog'larda kavsharlash biriktirilayotgan detallarni bir tekis qizdiradi, katta gabarit o'lchamli va murakkab konfiguratsiyali bo'lsa ham sezilarli darajada deformatsiyalanmaydi.

